



Toshkent shaharining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi
2026-yil yanvar dastlabki ma'lumot

I. Chakana savdo tovar aylanmasi

II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi

IV. Meta ma'lumotlar

V. Alogador boshqa havolalar.

I. Chakana savdo tovar aylanmasi


2026-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 14 420 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 194 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 14 226 tani tashkil qildi.

2026-yil yanvar oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 9 354,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yil yanvar oyiga nisbatan 127,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 4 607,6 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 151,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 746,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 185,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 115,7 %) tashkil etdi.

* – *norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*


Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/meta-data>



Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va uyushmagan savdo tovar aylanmasi dinamikasi (*ulushi foizda*)




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 19 185 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 272 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 18 913 tani tashkil qildi.

Toshkent shahar bo'yicha 2026-yil yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 19 260,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 12 804,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 115,5 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 50,4 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2762/meta-data>



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Mirobod (177,1 %), Sirg'ali (177,1 %), Bektemir (164,9 %), Mirzo Ulug'bek (114,2 %) va Yunusobod (113,3 %) tumanlarida kuzatildi.

* – *norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/meta-data>

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi


2026-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 5 599 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 64 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 535 tani tashkil qildi.

2026-yil yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 499,5 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 24,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 51,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

* – *norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;*




Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/meta-data>

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. Meta ma'lumotlar

*Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi-2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.



ichki savdo – yuridik va jismoniy shaxslarning mamlakat ichki bozorida tovar mahsulotlarini sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyati. Bunday savdo ikki toifaga bo'linadi ulgurji va chakana savdo;

ulgurji savdo – tovarlarni chakana sotuvchilarga qayta sotish (o'zgarishsiz sotish), korporativ mijozlar bilan savdo qilish (masalan, sanoat, tijorat, institutsional yoki professional foydalanuvchilar) yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish; bunday savdo shaxslar kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olishda yoki ularga tovarlarni sotishda agentlar yoxud brokerlar sifatida harakat qilishni nazarda tutadi;

chakana savdo – tovarlarni sotish kanallaridan qat'iy nazar yangi va foydalanilgan tovarlarni tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz, asosan, shaxsiy yoki uy iste'moli uchun aholiga qayta sotish (donalab yoki kichik miqdorlarda). Shuningdek, konsignatsiya yoki komissiya asosida sotish bo'yicha komitent nomidan ishlaydigan agentlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi;

IV. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/964/table-data>

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/table-data>

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/table-data>

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2700/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2701/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2825/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2829/table-data>

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i o'rinbosari : B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Ijrochi: B.Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	Manzil: 100000, Toshkent sh. Mirobod t. Amir Temur k. 11-uy;
---	--	--	--